

## MUSIQA DARSLARIGA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH

*Guliston Davlat Pedagogika instituti  
 Ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti  
 "Musiqa ta'limi" ta'limi yo'nalishi 3-kurs talabasi  
 Esanova Xurshida O'ralbek qizi*

**Annotatsiya.** Musiqa ta'limi ham muayyan tashkiliy shakllarda amalgalashiriladi, biz ularni dars o'tish, ekskursiya, amaliy va labaratoriya mashg'ulotlari, leksiya, seminar, diktant, nazorat testi va boshqalar tarzida tushunamiz. Guruh usulida va yakka tartibda o'qitish tarixan tarkib topgan va rivojlanmoqda. Har qanday holatda ham o'qituvchi o'quvchilarga bilim beradi, uning o'zlashtirilishi jarayoniga rahbarlik qiladi, o'quvchilarning harakatlarini tekshirib nazorat qilib boradi. Ta'limning zamонавиy sharoitlarida an'anaviy metodlarni takomillashtirishga va yangi metodlami izlab topishga tobora jiddiy talablar qo'yilayotir.

**Kalit zo'zlar.** Metodlar, texnologiyalar, mustaqil ishslash, rolli o'yinlar, musiqiy diktantlar, tanlovlardan, konferensiyalar, tadqiqot

## ВНЕДРЕНИЕ НОВЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКИ МУЗЫКИ

**Абстрактный.** Музыкальное образование осуществляется также в определенных организационных формах, под которыми мы понимаем уроки, экскурсии, практические и лабораторные занятия, лекции, семинары, диктанты, контрольные задания и т. д. Групповое и индивидуальное обучение исторически структурировано и развивается. В любом случае преподаватель дает учащимся знания, направляет процесс их приобретения, проверяет и контролирует действия учащихся. В современных условиях образования все более серьезные требования предъявляются к совершенствованию традиционных методов и поиску новых методов.

**Ключевые слова.** Методика, технологии, самостоятельная работа, ролевые игры, музыкальные диктанты, конкурсы, конференции, исследования.

## INTRODUCING NEW PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES TO MUSIC LESSONS

**Abstract.** Music education is also carried out in certain organizational forms, which we understand as classes, excursions, practical and laboratory training, lectures,

seminars, dictation, control tests, etc. Group and one-on-one teaching is historically structured and evolving. In any case, the teacher gives knowledge to students, guides the process of its acquisition, checks and controls the actions of students. In the modern conditions of education, there are increasingly serious demands to improve traditional methods and to find new methods.

**Key words.** Methods, technologies, independent work, role-playing games, musical dictations, contests, conferences, research

### **Kirish**

Maktab mashg‘ulotlari o‘quv jarayoniga ilg‘or pedagogik texnologiyalar, dars o‘tishning noan’anaviy usullari, xususan, interfaol usulni joriy etish yaxshi samara beradi. Pedagogik texnologiya - bu ta’lim shakllarini optimallashtirish maqsadida texnik vositalar, inson salohiyati hamda ulaming o‘zaro ta’sirini inobatga olib o‘qitish va bilim o‘zlashtirishning barcha jarayonlarini aniqlash, yaratish va qo‘llashning tizimli metodidir.

Pedagogik texnologiya bir nechta turlarga bo‘linishi mumkin: - umumpedagogik texnologiya; xususiy predmetli texnologiya (masalan, musiqa o‘qitish texnologiyasi); - mahalliy pedagogik texnologiya.

### **Adabiyotlar tahlili va metod**

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylilik, obyektivlik va deduktiv usullaridan foydalanildi. Insoniyat taraqqiyotida musiqa san’atining ahamiyati obyektiv ochib berildi. Tohirjon Ortiqovning “Musiqa o‘qitish metodikasi”, G.M.Sharipova, D.F.Asamova, Z.I.Xodjayevalarning “Musiqa o‘qitish nazariyasi metodikasi va maktab repertuarlari” kitoblari metodologik manba bo‘lib belgilandi.

### **Muhokama va natijalar**

Pedagogik texnologiya - bu jarayonlar, vositalar, uslublar majmuasidan iborat bo‘lib, u o‘quvchilarda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini shakllantirish uchun pedagogik ta’sir etishni maqsadga muvofiq tarzda amalga oshiradi. Musiqa darsi o‘tishning zamонавиy pedagogik uslublariga doir ko‘plab qo‘llanmalar mavjud. Bunday uslublami ilg‘or musiqa muallimlarining o‘zлари kashf qilganlar va ular yaxshi samara beradi. Xususan, “mavzu qanday bayon qilinganda uning necha foizi o‘quvchi yodida saqlanadi, u tomonidan o‘zlashtiriladi?” degan tabiiy savolga javob topish maqsadida o’tkazilajak tajriba yakuni “anglash piramidasi” degan nomni oladi. Unga ko‘ra mavzu bayonini: - faqat eshitganda uning 10 - 20 foizi; - eshitsa va mavzuga doir ko‘rgazmali materiallar bilan tanishsa, uning 30 - 50 foizi; - eshitsa, kuylasa, chalsa, ritmik harakatlar bajarsa, mavzuni o‘rtoqlariga gapirib bersa, tushuntirsa, ular bilan ashula yuzasidan muloqotda bo‘lsa, bahslashsa, mavzuning 60 - 90 foizi yodda qoladi, o‘zlashtiradi. O‘quvchi mavzu yuzasidan o‘rtoqlari, muallim bilan o‘zi muloqotga kirishishi, amaliy mashg‘ulotlarini tushuntirib bera olishi kerak. Ana shunda olingan

bilim mustahkam bo‘ladi. Turli uslublarni o‘rganib, taqqoslab, hamkasblar bilan fikrashib, har bir ustoz o‘z uslubini yarata oladi. Dastur va darsliklami amaliyotga joriy etuvchi muallimlaming bilimlari sust, kasbiy mahoratlari pastroq bo‘lsa, tabiiyki, darsliklar ilmiy metodik jihatdan puxta bo‘lsa ham, ular bunday o‘qituvchi qo‘lida “sayramaydi”, tilsiz, jonsiz qog‘oz bo‘lib qolaveradi va musiqa darsliklariga “asarlarni o‘rganishda qiyinchilik bo‘lyapti” degan tamg‘ani aynan shundaylar bosadi. Yangi pedagogik texnologiyada quyidagi usullardan musiqa darslarida zaruriyatli joylarda foydalanish tavsiya etiladi: Musataqil ishlash – ma’lum mavzular guruhi tugagach, ularni bir tizimga solish, mustahkamlash maqsadida o‘quvchilarga mustaqil amaliy ish, musiqa faoliyati bilan shug‘ullanish, darslik, musiqa savodi bilan ishslash ko‘nikmalarini hosil qilishdan iborat. O‘quvchilarning juft-juft bo‘lib, muloqotga kirishishi. Biror asarga oid masalani hal etishda qo‘llaniladi. O‘quvchilami guruhlarga bo‘lib ishslash orqali o‘rgatish. Bunda sinfdagi bolalarni besh - olti nafardan guruhchalarga ajratiladi.

Rolli o‘yinlar. Musiqiy asar mavzuyiga xos vaziyatni sahnalashtirish, rollarga bo‘lib ijro etish. Musiqiy diktantlar. Musiqiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘quvchi bilimini baholashning joriy nazorat shakllaridan biri. Tanlovlari. Ma’lum bir musiqiy mavzular guruhi bo‘yicha olingen bilimlami, ko‘nikmalami tekshirish, baholash maqsad qilib qo‘yiladi. Konferensiyalar. Har chorakda o‘tkazilishi mumkin, ularni ham oraliq nazoratning bir turi deb qaralsa bo‘ladi. Bunda o‘quvchilar o‘zlarini musiqa fanidan mustaqil yozgan ishlarini sinfga ma’ruza shaklida taqdim etadilar. “Aqliy hujum”. Tanlangan bitta musiqiy muammo bo‘yicha o‘quvchilami o‘zaro muloqotga, shu muammo bo‘yicha ijodiy ish olib borishga da’vat qilish, taklif etish. “Bahs - munozara”. Bunda biror musiqa mavzu bo‘yicha o‘quvchilarning fikr - mulohazalari navbat bilan eshitiladi, ko‘p fikrlilik ta’minlanadi. “Charxpalak”. O‘quvchilar faolligini oshirishning bu uslubida: - sinf o‘quvchilari olti kishilik guruhlarga bo‘linadi va har bir o‘quvchiga tartib raqami beriladi: 1,2,3,4,5,6; - musiqa fanidan har bir guruh o‘z topshirig‘ini oladi. Topshiriqlar turlicha bo‘lishi kerak. Guruhlar zarur bo‘lgan o‘quv jihozlari bilan ta’minlanadi (darsliklar, qo‘llanmalar, nota daftari, qog‘oz, ruchka, qalam, chizg‘ich, o‘chirg‘ich va xokazo); - guruhlar 15 -20 daqiqa davomida topshiriqni o‘rganadilar, uni hal qilishga kirishadilar, har bir guruh a’zosi natijani yozib boradi; - muallim guruhlar faoliyatni kuzatadi, savollarga javob, maslahatlar beradi; - vaqt tugagach (ikkinci bosqichda) tartib raqamlari bir xil bo‘lgan bolalar yangi guruhga birlashadilar; - yana 15 -20 daqiqa davomida yangi tuzilgan guruhning har bir a’zosi shu guruhning boshqa a’zolariga o‘zi hal qilayotgan topshiriqni tushuntiradi; - dars oxirida guruhlarga berilgan barcha musiqiy topshiriqlar yuzasidan test olish mumkin. “Tadqiqot”. Olingen bilimlar asosida kichik bir musiqiy muammo bo‘yicha yakka yoki ikki - uch nafar o‘quvchi birgalashib olib boriladigan izlanish. Bu muammo hali o‘tilmagan yoki o‘tilmaydigan mavzu bo‘lishi mumkin. Shunday masalalar ustida

ishlash iqtidorli bola bilimiga sayqal beradi, uni chuqur ilmiy - tadqiqot olib borishga undaydi, bolada bo'lajak olimga xos fazilatlarni ochadi.

Tabaqlashtirish. O'qitishni faollashtiruvchi uslublardan biri bo'lib, bunda o'qitish jarayonida musiqaga qobiliyatli bolalar tanlanadi, ularning musiqiy qobiliyatini yanada rivojlantirishga imkon beriladi. Uzluksiz ta'limda axborot kommunikatsiyalar texnologiyasi, kompyuter imkoniyatlari bilan ilg'or pedagogik texnologiyani oqilona birlashtirish, tabiiyki, nihoyatda samarali va bu o'qitish jarayonidagi yangi, yuqori sifat darajasi va katta yangilik bo'ladi. Bu g'oyani amalgalashirishning real yo'llaridan biri maktablar uchun elektron darsliklarni yaratishdir, elektron darslik mavzuni o'quvchiga eng qulay ko'rinishda taqdim eta oladi, u o'quvchi bilan interfaol usulda muloqotda bo'ladi. O'quvchi mavzularni mustaqil o'rGANishi va o'zi olgan bilimni test sinovi asosida sinab ko'rishi mumkin.

### **Xulosa va takliflar**

Xulosa qilib aytganda, hozirgi zamon darsiga qo'yiladigan eng muhim talablardan biri har bir darsda tanlanadigan mavzuning ilmiy asoslangan bo'lishidir, ya'ni darsdan ko'zlangan maqsad hamda o'quvchilar imkoniyatini hisobga olgan holda mavzu hajmini belgilash, uning murakkabligini aniqlash, avvalgi o'rGANILGAN mavzu bilan bog'lash, o'quvchilarga beriladigan topshiriq va mustaqil ishlarning ketma-ketligini aniqlash, darsda kerak bo'ladigan jihozlami belgilash va qo'shimcha ko'rgazmali qurollar bilan boyitish, qo'shimcha axborot texnologiya (komp'yuter)laridan foydalangan holda darsda muammoli vaziyatni yaratishdir. Darsga qo'yiladigan asosiy talablardan yana biri barcha didaktik vazifalar darsning o'zida hal etilishi, uyga beriladigan topshiriqlar o'quvchilarning darsda olgan bilimlarining mantiqiy davomi bo'lishi lozim. Dars davomida o'qituvchi o'quvchilaming jismoniy holatini, ijodkorligini, talantini, iste'dodini, tez fikrlashlarini hisobga olishi kerak. O'tilgan har bir dars o'quvchilar bilan birga tahlil qilib borilsa natija kutilgandek bo'ladi.

### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. "Musiqa o'qitish metodikasi"-kitobidan,T.Ortiqov
2. "Musiqa o'qitish nazariyasi metodikasi va mifik repertuarlari"-kitobidan, G.M.Sharipova, D.F.Asamova, Z.I.Xodjayevalar
3. Ibrohimov O.A., Xudoyev G'. M. "Musiqa tarixi" Toshkent 2018-yil.
4. <https://odam.uz/Qiziqarli/musiqaning-inson-organizmi-va-sogligiga-bolgan-tasiri-> saytidan
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/musiqaning-hayotimizdagi-o-rni-> saytidan